

**Abduvali Yo'ldashev**

Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy
meros ilmiy-tadqiqot instituti
bo'lim mudiri,
Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**MILLIY MADANIYATNI TARG'IB ETISHDA TURKISTON
MUZEYLARI KAM O'RGANILGAN SOHA SIFATIDA
(XIX asr oxiri – XX asr boshlari)**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15729356>

Annotatsiya. Maqolada Rossiya imperiyasining mustamlaka davrida tashkil etilgan muzeylar faoliyati, unda aks etgan maqsad va vazifalar, milliy madaniyatga bo'lgan munosabat masalalari tahlil etilgan. Shuningdek, maqolada XIX asr oxirlarida tashkil etilgan muzeylarda milliy madaniyat targ'iboti, uning ortida yashiringan nomoddiy madaniy merosni ochib berish emas, xalqning madaniy merosining talon-taroj qilinishiga oid ma'lumotlar o'rganilgan.

Kalit so'zlar: Turkiston, madaniyat, muzey, Farg'ona viloyat xalq muzeyi, etnografik ashyolar.

Kirish. Har bir xalqning taraqqiyotini ko'rsatib beruvchi omillardan biri, uning madaniyati hisoblanadi. Turkiston xalqlari ham asrlar davomida o'ziga xos boy madaniyatni yaratgan. Ularni o'lkadagi mavjud merosiga boqib, topilgan ilmiy topilmalariyu, dunyo mamlakatlarida namoyish etilayotgan moddiy va madaniy merosiga boqib anglash mumkin.

Rossiya imperiyasi XIX asrning ikkinchi yarmida Turkistonni bosib olgach, bu erda tashkil etgan hokimiysi barcha sohalarni o‘z nazoratiga olish va ulardan manfaat yo‘lida foydalanish harakatida bo‘ldi. Ular iqtisodiy, ijtimoiy sohada amalgam shirgan mustamlakachilik siyosatini madaniy hayotda ham qo‘lladi. O‘lkadagi milliy madaniyatni mafkurasi bilan chekladi. Natijada o‘zbek xalqining ming yillar osha davom etib kelayotgan madaniyatida cheklovlar, taqiqlar vujudga kelib mustamlakachi hukumat tomonidan unutilishiga harakatlar bo‘ldi. Farg‘ona viloyatining birinchi general-gubernatori Skobelevning [1]: “Millatni yo‘q qilish uchun uni qirish shart emas, uning madaniyatini, san’atini, tilini yo‘q qilsang bas, tez orada o‘zi tanazzulga uchraydi”, deb aytgan so‘zlari ham aynan shundan darak beradi [2: 326].

XIX asrda Turkistonga kirib kelgan yangicha teatr, kino, noshirlilik va matbaachilik kabi madaniy sohalar imperiya hukumati manfaatlari yo‘lida foydalanildi. Bu yo‘nalishda o‘lka xalqlarining faoliyati cheklanib senzura bilan faoliyat olib borishiga ruxsat berildi. Mustamlakachilar eng avvalo turkistonlik xalq o‘zligini yo‘qotishning muhim sharti sifatida milliy madaniyatni yo‘q qilishga kirishdilar. Ko‘plab milliy usullar, urf-odat, an‘analariga asoslangan madaniyat va san’atga rus madaniyatining kirib kelishi va ta’sirining ortib borishi norozilikni orttirdi.

Rossiya imperiyasining bosqini o‘lkadagi milliy madaniyatning toptalishi bilan birga moddiy va ma’naviy boyliklarning talon-taroj qilinishiga ham olib keldi. Shuningdek, bosqichi mamlakat madaniyati targ‘iboti yo‘lida vositachilik vazifasida ham foydalanildi. Turkiston o‘lkasida tashkil qilingan muzeylar va undagi ekspozitsiyalar tarixini o‘rganish orqali bunday maqsadni anglash mumkin.

Rossiya imperiyasining 1886-yil 16-iyulda qabul qilingan “Turkiston o‘lkasini boshqarish haqidagi Nizom”ga muvofiq, Turkiston o‘lkasidagi muzeylarni boshqarish uchun maxsus boshqarma tashkil etilgan. 1886–1904-yillari faoliyat yuritgan ushbu boshqarma keyingi davrda, Maxsus qo‘mita ixtiyoriga topshirilgan.

Mahsus komitaning faoliyati 1906-yili qayta tiklangan Uning faoliyat doirasidan kelib chiqib kutubxona va muzey ishiga oid yangi qonun-qoida tasdiqlangan.

Asosiy qism. Turkiston o'lkasidagi muzeylarning paydo bo'lishi, imperiya hukumatining rejalaridan bo'lmay, zarurat natijasi bilan vijudga keldi deyish mumkin. Boisi o'lkanning bosib olinishi natijasida qo'lga kiritilgan qimmatbaho asori atiqalar, noyob qo'lyozma va xujjalalar imperiya harbiylari, amaldorlari, sharqshunos sifatida tashrif buyurgan olimlari tomonidan tashib ketilgan. Hukumatning o'lkada tashkil qilgan ilmiy jamiyatlari omborida to'planib qolgan buyumlar xisobiga muzey ochish g'oyasi paydo bo'la boshlagan. Shuningdek, muzeylar yangi tadqiqotlar davomida to'planishi mumkin bo'lgan moddiy va ma'naviy boyliklarning ombori vazifasini ham o'tashi mumkin edi. Turkistonda imperiyaga xos muzey tashkil etish ishlariga o'lkaga kelib tadqiqot olib borgan rus olimlari tashabbus ko'rsatgan. A.P. Fedchenkoning Turkiston general-gubernatoriga tayyorlagan axborotida "Turkistonni muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun u bilan asosli tanishib chiqish kerak, muzey esa buning eng yaxshi vositasidir", deb yozgan edi [3]. Bu masala 1871-yili tabiatshunoslik, antropologiya va etnografiya havaskorlari jamiyatining Turkiston bo'limi majlisida ham muhokamaga tortilgan. O'rta Osiyo olimlari ilmiy jamiyati bir necha yillar davomida bu masalani hal qilish yuzasidan hukumatga murojaat qilganlar. Sirdaryo viloyati harbiy gubernatori general N.Golovachev 1876-yil 9-yanvarda muzeyni tuzish bo'yicha yig'ilishga N.A. Maev, V.F. Oshanin, A.I. Vilkins, D.Yu. Yujakov va I.I. Krauzelarni taklif etadi. Shu tariqa muzeyni ochishga qaror qilingan. Hukumat tomonidan muzey uchun ruxsat berilgan bo'lsa-da, uning uchun hatto joy ham ajratilmagan. Natijada, general N.A. Mayev o'ziga qarashli ipakchilik maktabi binosidan muzey uchun ikki xona ajratadi [4]. Shu tariqa, 1876-yil birinchi muzey tashkil etilgan.

1877-yilning yanvariga kelib, muzey etnografiya, ishlab chiqarish texnologiyasi, qishloq xo'jaligi, tabiat tarixi va arxeologiya bo'yicha 1500 dan ortiq ashyolarga, 800 ga yaqin qadimiy tangalarga ega bo'ladi. Muzey Nizomi ishlab chiqilib tasdiqlandi. Unda muzey ixtisosi vazifasi, ish ko'lami belgilab berildi. Muzey

ashyolarining tez-tez ko‘chirilishi hamda o‘g‘irlanishi natijasida u jiddiy zarar ko‘rsa ham olib borilgan harakatlar tufayli fondlar doimiy ravishda boyitib borildi. Toshkent muzeyi 1884-yilga kelib tangalar to‘plami Samarqand jamg‘armalaridan tashqari 3000 ta turli buyum-ashyolarga ega edi.

Rossiya imperiyasining “Turkiston o‘lkasini boshqarish haqidagi Nizomi” 1886-yili 16-iyulda e’lon qilindi. Unga binoan ta’sis etilgan maxsus qo‘mitaga muzey ham bo‘ysunar edi. Ammo maxsus qo‘mita faoliyati 1904-yilning oktyabrida to‘xtatilgach, muzey boshqaruvi bevosita mahkama raisi ixtiyoriga o‘tdi. Muzey qoshida 1906 yili Nazorat qo‘mitasi qaytadan tuzildi, kutubxona va muzey ishlarining yangi qonun-qoidalari tasdiqlandi, byudjeti birmuncha oshirildi. Shu paytdan e’tiboran muzey va kutubxona uchun bino qurish masalasi ko‘tarildi. Yangi keltirilgan qo‘lyozma, kitob, to‘plam, ashylarning ko‘pligi bu ishni kechiktirib bo‘lmas zaruriyatligini ko‘rsatardi. Mazkur masala yuzasidan tayyorlangan axborotda general-gubernator va mahkama boshqaruvchisining dala hovlilarini sotish muzey va kutubxona uchun bino qurishning yagona imkoniyatidir degan fikr bildiriladi. Sababi, ushbu binolardan kam foydalanilgan, qolaversa ularning saqlanishi uchun ma’lum mablag‘ sarflanishi ro‘kach qilinadi [5: 224].

Toshkentda tashkil etilgan muzeyning fondi aholidan tortib olingan buyumlar bilan birga, imperianing amaldorlari qo‘lga kiritgan buyumlarning ma’lum qismi sovg‘a qilinishi evaziga ham boyib borgan. Xususan, Semirechenskiy viloyati gubernatori general-leytenant Kolpakovskiy qashqarlik askarlarga yasalgan, quroslaslahalarlardan bir nechtasini sovg‘a tariqasida muzeyga yuborgan [6]. Avliyoota uyezdi rahbari general-leytenant V.A. Gerua esa xitoylik hunarmandlar tomonidan qo‘l mehnati bilan yasalgan mis ko‘zachalarning muzey fondiga yuborgan [7] Ammo bu biz bilgan manbalarda aks etgan ma’lumotlar xalos. To‘plangan asosiy qimmatli topilmalarning katta qismi Rossiya imperiyasi va xorijning muzey va kutubxonalariga yuborilganligi va sotilganligi bugungi chet ellardagi shunday joylarni bezab turgan moddiy va ma’naviy boyliklarimizdan ayondir. Boshqa hududlarga Turkistondan to‘plangan asosri-atiqalarni sovg‘a qilib yuborish o‘sha davrdayoq mavjud edi.

Masalan, Turkiston General-gubernatori Kaufmanga 1878-yil 27-oktyabrda yuborilgan tashakkurnomada, Kavkaz noibi boshqarmasi Toshkentdan yuborilgan etti yashik etnografik buyumlar olinib, Tiflis muzeyiga joylashtirilganligini xabar qilgan [8].

Rus olimlarining turli kolleksiyalar to‘plash faoliyati bir tomondan Peterburg, Moskva muzeylari, kutubxonalari, ko‘rgazma zallar zaxiralarini Turkistonga oid buyumlar va qo‘lyozmalar bilan to‘ldirishga qaratilgan bo‘lsa-da, ikkinchi tomondan ma’lum vaqt o‘tib, o‘lkada muzeylar tashkil etish hamda ilmiy jamiyatlarni rivojlantirish ishiga yordam berdi. O‘z ishlarining fidoyilari bo‘lgan olim, o‘lkashunos, shifokor turkistonlik aholi vakillari bilan birgalikda Turkistonda evropacha tamoyildagi muzeylar to‘plamlari, qo‘lyozmalar kolleksiyalarini yig‘ish, ommaviy kutubxonalarni tashkil etish ishlarini boshladilar.

1896-yil 21-iyulda Samarqandda muzey ochiladi va unga Georgiev cherkov binosidan xonalar ajratilgan. Ko‘rgazmada dastlab qishloq xo‘jaligi mehnat qurollari asosiy o‘rinni egallaydi. Shuningdek, ko‘p bo‘lmasa-da muzeyda arxeologiya, elshunoslik va tangashunoslik to‘plamlari ham namoyish etilgan. Devorlarida aholi turmushi, urf-odatlarini ifodalovchi yuzdan ortiq rasmlar ilingan [9].

1895-yil 2-noyabrdan Farg‘ona viloyat harbiy gubernatorining buyrug‘iga ko‘ra, gubernator uyining ikkinchi qavatidan to‘rtta xona muzey uchun ajratib berildi. 1897-yilda muzeyning nizomi tasdiqlangan bo‘lsa, 1899-yilning 26-may kuni “Farg‘ona viloyat xalq muzeyi” (uning birinchi nomi shunday edi) ochiladi. Bu vaqtga kelib muzeyda 2223 dona buyum va kitob yig‘ilgandi. Muzey gubernator uyining yordamchi xonasida joylashgan bo‘lib, dam olish va bayram kunlar ochiq bo‘lardi. 1911-yilda muzey yopilishiga majbur bo‘lindi va faqat 1920 yilda Farg‘onadagi siyosiy tuzimning o‘zgarishi natijasida, hokimiyat sovetlar qo‘liga o‘tgach, muzey qayta ochildi. Bu paytda uning maqsad va vazifasi ham butunlay o‘zgargandi. Muzeyning nomi esa, “Farg‘ona shahar ilmiy muzeyi” deb ataldi [5: 225].

Imperiya ma’muriyati muzeylar orqali hukmron mafkurani targ‘ib qilishga uringan. Chunki muzeylar kirishi va devorlariga ilingan tasviriy asarlar va

fotosuratlarda mustamlaka hukumatining g‘oyalari aks etgan edi. Shu bilan birga muzey eksponatlari orqali aholi Turkiston o‘lkasi tabiatini, xo‘jaligi, tarixi va madaniyatiga oid ma’lumotlarni olish imkoniyatiga ham ega bo‘lgan.

O‘lkadagi muzeylarning boyishida ilmiy jamiyatlarda faoliyat olib borgan turkistonlik havaskor yoshlarning ham o‘z o‘rni bor. Turkiston o‘lkasini o‘rganishda V.L.Vyatkin, N.I. Veselovskiy, V.V. Bartold, Ye.F. Kal, A.N. Samoylovich kabi rus olimlari o‘z ilmiy tadqiqotlarini olib borishda turkistonlik havasmandlariga tayandilar. Ularning ko‘magida rus olimlari ko‘proq natijalarni qo‘lga kiritganlar. Xususan, N.I. Veselovskiy rahbarligidagi ilmiy tadqiqotlarda Akromqori Asqarov ishtirok etib, o‘zi ham numizmatikaga oid to‘plamlar yiqqan [10]. U Parijdagi ilmiy arxeologiya jamiyatining ham a’zoligiga saylagan. Ammo uning vafotidan keyin u to‘plagan ko‘plab topilmalar talon-taroj qilingan. Akromqori Asqarov yiqqan 14 mingta tanga va 200 dona buyum Turkiston general-gubernatori A.B. Vrevskiy farmoyishi bilan Peterburgga, Imperator arxeologiya komissiyasiga yuborilgan [11].

Yana bir o‘lka tarixiga oid asori atiqalarni to‘plovchisi Mirza Abdulla qo‘lida ham ko‘plab moddiy ashyolar to‘plangan edi. N.I. Veselovskiy uning kolleksiyasidan 1202 buyum, shu jumladan 11 dona tilla, 77 ta kumush tanga, 951 dona chaqa, 18 muhr, odamlar, hayvonlar va boshqa narsalar tasviri tushirilgan 6 ta tosh sotib olgan [12].

Mustamlaka hukumati muzeylarni o‘z maqsadi yo‘lida tashkil etishga imkon bergen bo‘lsa-da, to‘plangan etnografik manbalarda xalqning turmush tarzi, hayoti, moddiy va asrlar osha ardoqlab kelingan nomoddiy madaniyati aks etgan edi. Mavjud hukumat ekspozitsiyalarni yaratishda ushbu jihatlarga emas, ko‘proq uning moddiy qiymati, o‘zining ko‘ngil ochar vositalaridan biri va imperianing buyukligi va uning g‘oyalarini targ‘ib qiluvchi vosita sifatida qaradi.

Xulosa qilib aytganda, dastlab xalqimiz qo‘lidagi noyob buyumlar muzeylar, ko‘rgazmalar uchun degan maqsadda to‘plangan bo‘lsa-da, ularni yig‘ib olib ketish va xalqni o‘z tarixidan uzoqlashtirishga qaratildi. Turkistonda tashkil qilingan muzeylar rossiyalik va evropalik aholi uchun mo‘ljallangan edi. Bu davrda

kolleksiyalarni birlashtirish va muzey tashkil etish masalasi juda murakkab kechdi. Chunki mustamlaka hukumati muzeylarni tashkil qilish orqali Turkiston xalqi orasida tarix va madaniyatga oid bilimlarni rivojlantirish va buyuk milliy davlatchilikni ko‘rsatib berish uchun emas, Rossiya imperiyasining buyuk davlatchilik siyosatini targ‘ib qiluvchi vosita sifatida foydalandi. Turkistonning qadimgi yodgorliklarni saqlash, muhofaza qilishga e’tibor qaratishdan ko‘ra, madaniy boyliklarni talon-toroj qilishiga xizmat qildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Skobelev Mixail Dmitrievich (1843 – 1882) — Rossiya imperiyasi generali. Xiva xonligiga bosqinchilik yurishda ishtirok etgan. Qo‘qon xonligini tugatilishidagi bosqinchilik harakatlarda shafqatsizligi bilan nom chiqargan. 1875–1876 yillarda Namangandagi bosqinchilik harakatlarida qishloqlarni talab, yondirgan, aholini qirgan. 1876–1877 yillarda Farg‘ona viloyatining birinchi harbiy gubernatori bo‘lgan. Rossiya – Turkiya urushida (1877–1878) qatnashgan. 1880–1881 yillarda 2-Axaltaka (Turkman) ekspeditsiyasiga rahbarlik qilib aholini qirg‘in qilgan. 1882 yil 7 iyulda Moskvada vafot etgan.
2. Тарих шоҳидлиги ва сабоқлари: чоризм ва совет мустамлакачилиги даврида Ўзбекистон миллий бойликларининг ўзлаштирилиши. Лойиҳа раҳбари, масъул муҳаррир: Д.А.Алимова. Тошкент: Шарқ, 2001. 326-бет.
3. Ўзбекистон Миллий архиви. И-1-фонд, 16-рўйхат, 259-ийғмажилд, 10-варак; “Туркестанские ведомости”. 1876 г. 7 декабр.
4. Ўзбекистон Миллий архиви. И-72-фонд, 1-рўйхат, 32-ийғмажилд, 12-варак.
5. Д. Назарова “Туркестанские ведомости” газетасида Туркистон музейлари фаолиятига доир маълумотлар. Доно Зиёева номидаги “Ўзбекистон тарихининг долзарб масалалари XIX аср иккинчи ярми – XX аср охири” 1-умуммиллий илмий йиғин тўплами. Тошкент. 2022. 224-бет.
6. “Туркестанские ведомости”. 1878 г. 11 апрел.

7. “Туркестанские ведомости”. 1878 г. 7 март.
8. Ўзбекистон Миллий архиви. И–1-фонд, 19-рўйхат, 428-йифмажилд, 23-варак.
9. Открытие музея // “Туркестанские ведомости”. 1896. 1 вагуст.
10. “Туркестанские ведомости”. 1891 г. 26 май.
11. “Туркестанские ведомости”. 1912 г. 20 июн.
12. Ўзбекистон Миллий архиви. И–1-фонд, 575-рўйхат, 4-йифмажилд, 53–58-вараклар.

ТУРКЕСТАНСКИЕ МУЗЕИ КАК МАЛОИЗУЧЕННАЯ СФЕРЕ В ПРОПАГАНДЕ НАЦИОНАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ (КОНЕЦ XIX - НАЧАЛО XX ВВ.)

Аннотация. В статье анализируется деятельность музеев, созданных в период колониализма Российской империи, цели и задачи, отраженные в них, а также отношение к национальной культуре. В статье также рассматриваются сведения о пропаганде национальной культуры в музеях, созданных в конце XIX века, не о раскрытии скрытого за ней нематериального культурного наследия, а о разграблении культурного наследия народа.

Ключевые слова: Туркестан, культура, музей, Ферганский областной народный музей, этнографические памятники.

TURKESTAN MUSEUMS AS A POORLY STUDIED SPHERE IN THE PROMOTION OF NATIONAL CULTURE(LATE 19 TH - EARLY 20 TH CENTURIES).

Abstract. The article analyzes the activities of museums established during the colonial period of the Russian Empire, the goals and objectives reflected in them, and the attitude towards national culture. The article also examines information about the propaganda of national culture in museums established at the end of the 19th century,

not about revealing the intangible cultural heritage hidden behind it, but about the plundering of the people's cultural heritage.

Keywords: Turkestan, culture, museum, Fergana Regional People's Museum, ethnographic artifacts.